

**2020 yil yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi**




Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020 yil yanvar-fevral oylarida viloyattdagi korxonalar tomonidan 2193,0 mldr. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o’tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,5 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o’sishining asosiy omili bo‘lib, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 75,2% ga, Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 66,7% ga, o’sishi hisoblangan.

**Yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.**

**2019-yil yanvar-fevral**



**2020-yil yanvar-fevral**



## Samarqand viloyatida o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi



### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan 2020 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,3 mld. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.



shundan:

Tog‘-kon sanoatida texnik xizmatlar  
tog‘-kon sanoatining boshqa faoliyatları

	Mldr. so‘m	Jamiga nisbatan ulushi %
Tog‘-kon sanoatida texnik xizmatlar	0,4	2,8
tog‘-kon sanoatining boshqa faoliyatları	13,9	97,2



**Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2020 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2060,6 mlrd. soʻnni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,0 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmogʻining ulushi 0,7 % ni, oʻrtayuqori texnologiyali 21,7 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali - 11,6 % ni va quyi texnologiyali - 66,0 % ni tashkil etdi.

shundan:

	<i>Mlrd. soʻm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi %</i>
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	841,4	38,4
toʻqimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	476,4	21,7
mashina va uskunalarini ishlab chiqarish, taʼmirlash va oʼrnatish, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar va boshqa tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	455,5	20,8
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	48,7	2,2
metallurgiya sanoati	115,3	5,3
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,9	0,04
yogʼoch va poʼkak buyumlar, pohol va toʻqish uchun materiallardan buyumlar, qogʼoz va qogʼoz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	30,6	1,4
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	4,5	0,2
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	11,5	0,5
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	75,8	3,4

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,7 % ni) tashkil etdi.



*shundan:*

elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

*Mlrd. so‘m*

*Jamiga nisbatan ulushi %*

102,9	100,0
-------	-------



*shundan:*

Suvni yig‘ish, qayta ishslash va taqsimlash  
Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish,  
utilizatsiya qilish

*Mlrd. so‘m*


*Jamiga nisbatan ulushi %*

11,0	72,7
------	------



4,2	27,3
-----	------

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi  
(yanvar-fevral)**

Hajmi mlrd. so'm




Jamiga nisbatan ulushi % da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 14,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 448,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 20,4 %), o'rta-quyi texnologiyali 238,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 10,9 %), qo'yi texnologiyali 1360,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 62,0 %) ni tashkil etdi.

## Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1292,8 mldr. so‘mni tashkil etdi va 2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,9 % ga o’sishini ta’mindadi, jami sanoatdagi ulushi esa 59,0 % ni tashkil etdi.

### 2020-yilning yanvar-fevral oyalarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, foizda




2020-yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2019 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 61,0 % tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-fevral oyida 59,6 % ni tashkil etganligini kuzatish mumkun.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari hamda pivo 40,4 % ni (2019-yil yanvar-fevral oyida 39,0 %) tashkil etdi.


### 2020 yil yanvar-fevral oyida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)




Sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan	2020 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan
O'simlik yog'i, t	2059,0	2430,0
Yirik shoxli qora mollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponetli aralashmalardan tashqari), ming t	15,7	20,1
<b>Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari) ming l</b>	<b>1601,0</b>	<b>2044,0</b>
Tamaki (segaret), mln.dona	1715,0	1420,0
<b>Boshqa guruhlarga kiritilmagan cho'g'lanma lampalar , ming dona .</b>	<b>-</b>	<b>127,98</b>
Yigirligan ip, t	86,3	358,2
<b>Xo'jalik sovuni, t</b>	<b>721</b>	<b>1423</b>
Mineral va kimyoviy o'g'itlar chiqarish, ming t.	4,81	2,88
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>	<b>13,6</b>	<b>3,3</b>

Bunga ko'ra, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning mos davriga nisbatan qiyoslaganda yigirligan ip – 4,2 martaga, yirik shoxli qora mollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponetli aralashmalardan tashqari)-27,7 % ga, pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)-27,7 % ga xo'jalik sovuni-2,0 martaga o'sishi hisoblandi.

**Samarqand viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %**



**Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi**  
 (2020 yil yanvar-fevral oylarida 2019 yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, %)





**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar  
 mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 754,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining  
umumiy sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, %**


**2019 yil yanvar-fevral**

**2020 yil yanvar-fevral**



█ Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
█ Viloyatning boshqa korxonalari

**2020 yil yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab  
chiqarish hajmi (mlrd. so'm)**




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'pi Samarqand shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,6 %), Jomboy (11,9 %), Samarqand (7,7 %), Urgut (7,4) va Tayloq (4,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1188,7 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 54,2 % ni tashkil etdi.

### 2020 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar boʻyicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Nurobod, Qoʼshrabot, Paxtachi, Ishtixon, Payariq va Oqdaryo tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Samarqand (99,4 %), hamda Urgut (97,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush, Kattaqoʼrgʼon shahri (16,2 %), Narpay (22,5 %) va Jomboy (23,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarish  
(yirik korxonalar bo'yicha)**  
**Qayta ishlash sanoati**

<i>Sanoat mahsulotlari nomi</i>	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2020-yil yanvar-fevral</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Tarkibida ikkita ta'minlovchi element—azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	 ming tonna	0,13	8,1 ↓
Aroq	 ming l. 100% spirit	41,1	93,8 ↓
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirit nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	 ming l. 100% spirit	32,6	2,3 m ↑
Uzum vinosi	 ming l.	142,2	4,3 m ↑
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	 ming l.	2044,0	127,7 ↑
Yumshoq bug'doy va spelta uni	 ming tn.	26,7	102,3 ↑
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni (buxanka), og'irligi 600 g.	 tn.	70,0	57,9 ↓

2020-yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Tozalangan paxta yog'i  
va uning fraksiyalari  
(kimyoviy modifikatsiya  
qilinganlaridan tashqari)



*tn.* 2059,0 90,2 ↓

Paxta tolasi



*ming tn.* 3,3 24,2 ↓

Paxta chigiti



*ming tn.* 5,1 23,7 ↓

Paxta tiviti (lint)



*tn.* 179,0 13,4 ↓

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari  
(IEM) ishlab chiqargan  
elektr energiyasi



*mln.kVt/s* 3,43 39,4 ↓

Bug' va issiq suv (issiqlik  
energiyasi)




*ming Gkal.* 14,9 98,0 ↓

## Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 6188 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1511 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Samarqand shahriga, 892 tasi (14,4%) Urgut tumaniga, 554 tasi (9,0 %) Samarqand tumaniga to'g'ri kelmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2020 yil 1 mart holatiga)



2020 yil yanvar-fevral oylarida viloyatda 288 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi va tashkil etilganlarning eng ko‘pi Urgut tumani (13,2), Samarqand shahri (12,8 foiz) va Pastdarg‘om (10,4 foiz) tumaniga to‘g‘ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2020 yil 1 mart holatiga)

2020-yilning yanvar-fevral oyida Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



Sanoat statistikasi bo‘limi  
E.A.Qo‘qonov  
Tel: (66) 235-06-80